



## **BADIIY ADABIYOTDA ABU RAYHON BERUNIY OBRAZINING QIYOSIY TALQINI**

**Shomurodov San‘at Dilmurod o‘g‘li,**  
*Nukus innovatsion instituti o‘qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207166>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy obrazining badiiy adabiyotdagi qiyosiy tahlillari Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo”, Maqsud Qoriyevning “G‘aznaviylar”, Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanlari misolida amalga oshiriladi. Jumladan, har bir romanda hazrat Beruniy obrazining o‘ziga xos xususiyatlari yozuvchilarning obraz yaratishdagi mahorati va allomaning Sulton Mahmud G‘aznaviy bilan bo‘lgan munosabatlari talqini, ilmiy faoliyati hamda ijodiy merosi masalalari umumiy holda tadqiq etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** tarixiy roman, qiyosiy tahlil, ilmiy meros, Beruniy, Mahmud G‘aznaviy.*

Tarixiy romanchiligimizning tadrijiy taraqqiyoti va mavzu ko‘lamiga nazar tashlar ekanmiz, buyuk alloma, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy obrazi va shaxsiyati talqinlari romanchiligimizda birmuncha kechroq aks eta borganligiga guvoh bo‘lamiz. Alloma obrazini ilk bora Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanida uchratamiz. Roman 1982-yilda nashr etilganligiga e‘tibor qaratigan bo‘lsak, davr siyosatining ta‘siri birmuncha yumshagan, ijodiy erkinlik shabadalari esa boshlagan davrga tog‘ri keladi. Sovet davri adabiy muhitida tarixiy roman yaratish masalasi ijodkor shaxsiyatidan ulkan jasorat talab etar edi va ular odatda mafkuraviy bosimlarga duchor bo‘lganligi sababli har qanday ijodkor yozuvchilar ham bu mavzuda qalab tebratishga botina olmas edi. Tarixiy romanchiligimizda o‘z uslubiga ega bo‘lgan va “Ulug‘bek xazinasini” tarixiy romani bilan jamoatchilik e‘tiboriga tushgan yozuvchi Odil Yoqubov olis o‘tmish voqeligini badiiy tadqiq etgan holda Mahmud G‘aznaviy va alloma Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino obrazlarini badiiy umumlashtirgan holda “Ko‘hna dunyo” romanini yaratdi. Romanda Abu Rayhon Beruniy shaxsiyati Sulton Mahmud G‘aznaviy obrazi bilan birgalikda talqin etiladi. Umuman, Sharqning ikki buyuk allomasi hisoblanmish Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino obrazi talqinlari Mahmud G‘aznaviy obrazi bilan birgalikda ochib beriladi. Chunki Ko‘hna Xorazm diyori Sulton Mahmud G‘aznaviy tomonidan fath etilganidan so‘ng “Dorul hikma va maorif” faoliyati tugatilib, bir qancha olimlar qatori Abu Rayhon Beruniy ham majburan G‘aznaga keltiriladi. Aynan allomaning G‘aznadagi hayoti, ilmiy faoliyati va Mahmud G‘aznaviy bilan bo‘lgan munosabatlari talqini va tasviri tarixiy romanchiligimizda ziddiyatli va

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



serbahsdir. Romanning asosiy voqealar rivoji Mahmud G‘aznaviy hukmronligining so‘nggi yillariga oid voqea-hodisalar tasviriga bag‘ishlanadi va hukmdorning nomalum kasallikka yo‘liqqani va zamonasining hakimi davronlari ham da‘vo topa olmaganligi, ayni damda Beruniyning do‘sti bo‘lmish alloma bilan bir zamonda yashagan Abu Ali Ibn Sino ham Sultonni davolashni istamay shaharma-shahar yashirib yurishi bilan bog‘liq murakkab va ziddiyatli voqea hodisalar fonida Beruniy obrazi ham harakat qiladi. Romanda Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi, kashfiyotlari, yaratgan asarlariga keng o‘rin berilmaydi, balki mutafakkirning ruhiyatidagi ziddiyatlar, insoniy kechinmalari, bolalik xotiralari, ilk sevgi taassurotlari, sog‘inch iztiroblari alloma xotiralarini jonlantirish orqali: *“Ibn Sino...!” bu ikki so‘z Abu Rayhonning diliga bamisoli iliq bir nur bo‘lib quyiladi-yu, ko‘ngli yorishib ketdi. Yo Rab! So‘ngbor Gurganch sarhadida, ko‘zlarida yosh, quchoqlashib vidolashganlariga necha yil bo‘ldi? O‘n sakkiz, yo‘q, salkam o‘n to‘qqiz yil bo‘libdi! O‘n to‘qqiz yildirki, bir – birining diyodoriga zor! Gurganchda, Ma‘mun ibn Ma‘mun saroyida o‘tkan qizg‘in bahs munozaralar, dilrobo mushoiralar, tongotar suhbatlar qayda qoldi? Faqat ko‘ngilda! Ular xuddi tushdagi ro‘yoday o‘tdi-ketdi! Goho goho keladigan uzuq yuluq xabarlar, onda sonda bo‘ladigan yozishmalardan boshqa hech narsa yo‘q... Hatto yozgan kitoblarini o‘qishga ham zor! Abu Rayhon uning dong‘i olamga ketgan “Al Qunun” asarining faqat bir jildini o‘qishga nuyassar bo‘ldi, Ibn Sino esa uning “Hindiston”ini ko‘rmadi hali ko‘rmadi ham!” [1: 38] talqin etiladi. Ushbu tasvirlar orqali yozuvchi allomaning garchi G‘aznadagi ilm fan maktabi vakillari bilan faoliyat yurutgan bo‘lsa-da, yaqin do‘sti Ibn Sino bilan yaqindan suhbatlasha olmaganligi, saroy muhitidagi murakkab sharoit va biqiq ijodiy muhit va ayniqsa Mahmud G‘aznaviydek hukmdor qahriga yo‘liqib qolmaslikdek ziddiyatli hayot tarzi ochib beriladi.*

Adabiyotshunos U. Normatov “Ko‘hna dunyo” romani haqida o‘z qarashlarini shunday: *“Yoqubovning romani markazida Ibn Sino hamda Beruniy taqdirleri, ular yashagan davr turadi. Muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga ajib aktual ma‘no bag‘ishlaydi. Zamonlar osha qilgan sayohat teran falsafiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qo‘yilmagan. Odil Yoqubov tarixni ko‘rib turadi, tarix bilan baxslashadi, zamondoshlarga uzoq o‘tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berganday bo‘ladi. U tarixga bugungi davr nuqtai nazaridan qaraydi” [2: 376] bayon etadi. Shu bilan birgalikda allomaning Mahmud G‘aznaviy bilan amalga oshirgan Hindiston safari taassurotlari,*



o‘zi guvoh bo‘lgan jang maydonidagi vahshiyliklar, ayniqsa Ind daryosi bo‘yidagi qal‘adagi ibodatxonaga yashiringan ellik ming odamning ustidan tiriklayin o‘t qo‘yishi bu mudhish qotillikni oldini ololmaganligidan o‘zini aybdor his etadi. Romandagi insoniy fojialar, shaxs qismatining rang-barangligi va olam va odam haqidagi qarashlar xususida adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshning fikrlari ham e’tiroflidir: *“O. Yoqubovning olam hodisalari va odamning moxiyati haqidagi zalvorli o‘ylari, salmoqli mulohazalari “Ko‘hna dunyo” romanida o‘zgacha bir yo‘sinda aks etgan. Muallif bu asarida inson, uning hayotdagi o‘rni, o‘z taqdirini belgilashdagi ishtiroki, adolat, haqiqat va ularning tantanasi to‘g‘risidagi qarashlarini turlicha tabiatli shaxslarning qismati misolida, keskin va qaltis burilishlarga boy shiddatli voqaelar asnosida ifoda etadi. Yozuvchi romanda ko‘proq inson xayoti ma‘nosini anglamoqchi bo‘lgan faylasuf sifatida ko‘rinadi.”* [3: 282]

Romanda Abu Rayhon Beruniyning G‘aznadadagi hayoti, shaxs sifatidagi insoniy kechinmalari, ayniqsa, fotih sulton Mahmud G‘aznaviy va alloma o‘rtasidagi kechgan kurashlar yozuvchi badiiy konsepsiyasiga monand yoritilganki, o‘qirman qarashlarida abadiyatning qadim kurashlari hisoblanmish ezgulik va yovuzlik, ma‘rifat va jaholat, hukmdor va donishmand o‘rtasidagi qarama qarshiliklar xususida yaxlit badiiy umumlashma paydo bo‘ladi.

Ulug‘ alloma shaxsiyati talqini bilan bog‘liq asarlardan yana biri Maqsud Qoriyevning “G‘aznaviylar” asari hisoblanib asar mustaqillik yillarida yaratilganini inobatga oladigan bo‘lsak tarixiy davr voqeligi xolis yoritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin ushbu romanda ham Beruniy obrazi bilan bog‘liq voqea hodisalar romaning asosiy syujet chizig‘ini tashkil etmasdan, asarning nomlanishiga monand G‘aznaviy sulola vakillari, jumladan, sulton Mahmud G‘aznaviy obrazi talqini romaning markazida turadi. Beruniy shaxsiyati bilan bog‘liq voqea hodisalar aynan Mahmud G‘aznaviy obrazi bilan birgalikda tasvirlanadi. Chunki alloma umrining katta qismi G‘aznadagi saroy muhiti bilan bog‘langanligi Mahmud G‘aznaviyning Hindiston yurishlarida bevosita tilmoch sifatida ishtirok etganligi, va bu jarayonda hind madaniyatining ulkan boy merosidan bahramand bo‘lishi, aynan mana jarayonlar uning “Hindiston” asarining yaratilishiga turtki bo‘lgan. Dunyo yaralibdiki, shoh va shoir, hukmdor va olim-u mutafakkirlar o‘rtasida ezgulik va yovuzlik, haqiqat va adolatsizlik kurashi davom etib kelmoqda. Shubhasizki, Beruniy va Mahmud G‘aznaviy o‘rtasidagi jiddiyatli munosabatlarda ham buni ko‘rishimiz mumkin. Sulton g‘aznaviylar sulolasining eng ko‘zga ko‘ringan nomdor vakillaridan



biri bo‘lgani holda u oddiy fuqarodan tortib, amirlar-u diniy arboblari, olim-u fuzolalargacha unga so‘zsiz itoat etishni xohlaydi. Alloma Beruniy esa diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur tadqiq etgan o‘z davrining qomusiy olimi sifatida ijodiy erkinlik istaydi, sultonga hech qachon bosh egmaydi boshqalar kabi uning nomiga maqtovlar aytib hadyalar olishni hayoliga ham keltirmagan. Garchi G‘azna-da ham o‘ziga xos ilmiy muhit shakllantirilganiga qaramasdan, Xorazmdagi hukmdor Ma‘mun davridagi “Majlisi ulamo”dagi muhitni va ona yurti Xorazm sog‘inadi. Romanda Yozuvchi Beruniy obrazning mana shu kabi jihatlarini ochib beradi. Asardagi ushbu tasvirlar fikrimizga misoldir: *“Abu Rayhon Muhammad al-Beruniyning G‘aznaga olib kelganlaridan ham, mana ancha yillar o‘tib ketdi. O‘shanda u avji kuch quvvatga to‘lgan, kamolat yoshida edi. Biroq, u qafasga tushganday, zanjirlangan she‘rdek bir holda. Yozadigan risolalari ko‘p, ona vatani Xorazmni sog‘inadi, o‘z eli, jafokash, istedodli xalqi bilan faxrlanish hissi bir daqiqa ham uni tark etmaydi.”* [4: 138] Yoki asardan olingan yana bir tasvirda Beruniy va Sulton o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar talqiniga yaqqol misol bo‘la oladi: *“G‘ulom uni to‘ppa to‘g‘ri hukmdor huzuriga olib kirdi. Beruniy Sultonga egilib salom berdi-yu ammo borib qo‘lini o‘pmadi. Keyin “xo‘sh xizmat” deganday odob-tavoze bilan turaverdi. Sulton Mahmud G‘aznaviy Abu Rayhon Beruniyga razm soldi: “Egilmaydi, mag‘rur va masrur. Agar olimligi bo‘lmasa, nima qilishni o‘zim bilardim”, degandek yer tagidan unga qarab qo‘ydi”* [5: 139] Sulton va Beruniy o‘rtasidagi ziddiyatning yana bir sababi diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi tafovutdir. O‘rta asrlar diniy qarashlarida osmon jismlarini tadqiq etish, samoviy jismlar harakatini belgilash, yer kordinatalarini o‘rganishga oid qarashlar ham kufr amal sifatida qaralgan. Aynan Beruniyning bu sohaga oid izlanishlari mutassib dindor hukmdor Mahmud G‘aznaviyga xush kelmagani aniq. Bundan tashqari, Beruniy islomdagi mazhablar o‘rtasidagi bahsli nizolarga ham oqilona yo‘l bilan yechib topish tarafdori bo‘lgani holda Sulton sunniy mazhabiga e‘tiqod qilgani boshqa mazhablarga nafrat bilan qarashini inkor etmaydi, imkoni bo‘lsa ularni yoqotishni-da istaydi. Yozuvchi o‘zining romanida Sulton va Beruniy tafakkuridagi qarama qarshiliklar ular o‘rtasidagi ziddiyatlarning asosiy omili sifatida ko‘rsatadi va romanda bu masalalarni atroflicha va turli vaziyatlarda ochib berishga harakat qilgan.

Qomusiy olim, ulug‘ mutafakkir Abu Rayhon Beruniy shaxsiyati va ilmiy merosi yaxlit holda ochib berilgan asar bu Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanidir. Roman so‘nggi yillar o‘zbek tarixiy romanchilgining o‘ziga xos yutug‘idir. Chunki taniqli yozuvchi Isajon Sulton o‘zining ijodiy barkamolligi, va

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



tarix haqiqatini teran tadqiq etgan holda qomusiy olim Beruniy obrazini to‘laqonli ochib berishga erisha olgan. Yozuvchi allomaning bolalik davri xotiralarini, ta‘lim olgan ustozlari, oilaviy va shaxsiy hayoti chizgilarini atroflicha yoritadiki, bu ham bo‘lsa alloma shaxsiyatini to‘laqonli anglab yetishimizga imkon beradi. Asarning o‘ziga xos jihati shundaki, uning markazida Beruniy obrazi turadi va barcha voqea hodisalar talqini alloma atrofidagi syujet chizig‘ida harakat qiladi. Romanda ulug‘ mutafakkirning sajiyasidagi yuksak aql va zakovat ijodkor mushohadalari emas balki alloma bilan bir zamonda yashagan zamondoshlar nutqini individuallashtirish orqali ochib beriladi va bu uslub asarning hayotiyiligini ta‘min etadi va tarix haqiqatini to‘laqonli ochib berishga zamin yaratadi. Allomaning ustozlari Mansur Ibn Iroq xotiralarini barcha misol bo‘la oladi: *“Abu Rayhonning suryoniy tilini o‘rganib olganini uning juda katta yutug‘i deb bilaman. Suryoniyni bilmoq – a‘romiy va ibroniy ham bilmoqdir, chunki biri Ismoil, ikkinchisi Isroil alayhissalom tilidir. Eng qadimgi bilimlar shu tillarda ekani barcha ilm ahliga ma‘lum. Men uning qaysi fanda qobiliyatli ekanini bilish uchun uni goh jug‘rofiya, goh tarixga goh hisob ilmiga yo‘lladim. Bularning barida u birday qobiliyat bilan ilgiriladi”* [6: 29].

Beruniy o‘zi bilan birga qo‘shni yashagan Yadid Ibn Yunon ismli odamdan suryoniy tilini o‘rganadi va u kishiga ham turkiy tilni o‘rgatadi. Asarda ushbu voqealar tasviri “Qiyot. Yadid Ibn Yunon” hikoyasi orqali ochib beriladi. Yuqorida tasvirlaganimizdek Beruniy shaxsiyatining mana shunday sifatleri turli xil tarixiy shaxslarning mushohadalari orqali ochib beriladi va bu holat zamon va makon kansepsiyani to‘laqonli anglab yetishimizga zamin yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, biz yuqorida tahlil etgan uchta romanda ulug‘ mutafakkir, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy shaxsiyati, murakkab va ziddiyatli hayoti va ilmiy merosi va faoliyati talqinlariga oid qarashlar aks etgan. Har bir yozuvchi o‘z ijodiy niyat ijrosi o‘laroq Beruniy siymosini obrazlantirishga harakat qilgan. *Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo”, Maqsud Qoriyevning “G‘aznaviylar”* romanida Beruniy siymosi asosiy obraz hisoblanmasdan Mahmud G‘aznaviy shaxsiyati bilan birgalikda uzviy aloqada talqin etiladi. Chunki yuqorida tahlil etganimizdek, mutafakkir umrining katta qismi G‘azna bilan bog‘liq holda kechganini inkor eta olmaymiz va bu romanlarda o‘z davrining ikki buyuk siymosi o‘rtasi kechgan ziddiyatli munosabatlar talqiniga guvoh bo‘lamiz. Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani esa Abu Rayhon Beruniy ijodiy va ilmiy merosi yaxlit holda ochib berilgan asardir. Chunki asarning markazida Beruniy obrazi turadi, boshqa tarixiy jarayonlar va Sulton Mahmud G‘aznaviy bilan bo‘lgan munosabatlar

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



talqini ikkinchi planda turadi. Roman Beruniy ilmiy merosi haqida yozilgan va shu paytgacha yaratilgan asarlarning mukammal namunasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yoqubov. O. Ko‘hna dunyo. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 38.
2. Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. –T.: Sharq, 2015. – B. 376.
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 282.
4. Qoriyev M. G‘aznaviylar. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2007. – B. 138.
5. Sulton I. Alisher Navoiy. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B. 29.

